



UO'K :81'373.45:64

Dilshoda XUDOYBERDIYEVA,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilshidahudoyberdiyeva@gmail.com

TerDu dotsenti, PhD A.Xudayqulov taqrizi asosida

MAISHIY TEXNIKA SOHASIGA OID O'ZLASHMA LEKSIKANIY MAVZUVIY GURUHLANISHI

Annotation

Fan va texnikaning rivojlanishi natijasida tilning terminologik qatlami rivojlanib bormadi. Jumladan, o'zbek tilining ilmiy-texnikaviy atamaları qatorida maishiy texnika sohasiga oid leksik birliklar safi kundan kunga ortib bormoqda. Maishiy texnika sohasiga mansub terminologiyani o'rganib borish, leksikologiyaning dolzarb muammolaridan sanaladi. Zero, atamalarning nominativ xususiyatlari, etimologiyasi va dinamikasi, semantikasi hamda boshqa lingvistik xususiyatlari alohida tadqiqot yo'nalishlaridir. Mazkur tadqiqot ish o'zbek tiliga o'zga tillardan kirgan maishiy texnika sohasi atamalarini leksik-mavzuviy guruhlariga ajratib o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Maishiy leksema, tematik guruhlash, elektron pechka, dazmol, diktofon, grammafona, mikser.

THEMATIC GROUPING OF BORROWED VOCABULARY RELATING TO THE FIELD OF HOUSEHOLD APPLIANCES

Annotation

As a result of the development of science and technology, the terminological layer of the language has not developed. In particular, the number of lexical units related to the field of household appliances, along with the scientific and technical terms of the Uzbek language, is increasing day by day. The study of terminology related to the field of household appliances is one of the current problems of lexicology. After all, the nominative properties, etymology and dynamics, semantics and other linguistic properties of terms are separate areas of research. This research work is devoted to the study of the terms of the field of household appliances that entered the Uzbek language from other languages, dividing them into lexical and thematic groups.

Key words: Household lexeme, thematic grouping, electronic stove, iron, dictaphone, gramophone, mixer.

ТЕМАТИЧЕСКАЯ ГРУППИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ В ОБЛАСТИ БЫТОВОЙ ТЕХНИКИ

Аннотация

Терминологический пласт языка не развивался в результате развития науки и техники. В частности, среди научно-технических терминов узбекского языка с каждым днем увеличивается количество лексических единиц, относящихся к сфере бытовой техники. Изучение терминологии, связанной с бытовой техникой, является одной из актуальных проблем лексикологии. Ведь номинативные свойства, этимология и динамика, семантика и другие языковые свойства терминов — это отдельные области исследований. Данная исследовательская работа посвящена изучению терминов в сфере бытовой техники, вошедших в узбекский язык из других языков, разделению их на лексические и тематические группы.

Ключевые слова: Бытовая лексема, тематическая группировка, электронная плита, утюг, диктофон, граммофон, миксер.

Kirish. Bugungi kundagi hayotimizni maishiy texnika vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Fan va texnikaning rivojlanishi hisobiga maishiy texnikalar turlari ham ortib bormoqda, natijada mazkur tabiiy hodisa soha leksikasining boyishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbek tili leksik qatlamida boshqa sohalarda bo'lgani kabi maishiy texnika sohasiga doir atamalar va terminlar soni ortib bormoqda. Bu borada turli tillardan o'zlashgan leksik birliklar soni katta qismni tashkil qiladi. Ularni muntazam ravishda o'rganib borish leksikologiya fanining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Maishiy texnika vositalari nomlarini tematik guruhlab o'rganish orqali bu vositalarning ishlatilish o'rinlari va funksiyalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maishiy texnika sohasiga oid leksemalarning mavzuviy guruhlanishi haqida so'z yuritir ekanmiz, avvalo, leksema termini haqida ma'lumot berib o'tsak. Leksema (gr. Lexis - so'z, ifoda) terminini qo'llash 1918-yilda rus tilshunosi A.M. Peshkovskiy tomonidan taklif qilingan. Leksema termini so'zlarni grammatik xususiyatlardan xoli idrok etish uchun tanlangan. Shu boisdan kitob, kitobni, kitobga birliklari grammatik shakllangan uchta so'z, lekin ular zamirida bitta leksema yotadi. Tilshunoslikda bu talqinga V.V.Vinogradov, A.I.Smirtskiy, A.A.Zaliznyak kabi atoqli olimlar katta hissa qo'shishgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maishiy texnika sohasiga oid o'zlashma leksemalarni leksik-mavzuviy guruhlab, bu atamalarning etimologiyasi va semantikasi qiyosiy tahlil metodi orqali o'rganilib, yoritib berildi. Bugungi kunda texnika sohasiga oid terminologiyani o'rganish bu leksemalar o'zlashgan qatlamga

ega yoki ega emasligini o'rganish ham tilshunolar uchun muhim masala hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Maishiy texnika sohasiga oid o'zlashma leksemalarni tematik guruhlash maishiy texnikaning rivojlanishi va turli aspektlarda ushbu texnikaga oid terminlarni to'g'ri qo'llash, sohaga oid matnlarni to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi. Garchi soha leksemalarining ko'pchiligi terminologik xarakterda bo'lsada, ularning polisemantik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Masalan, mikser (Ingl. mix so'zidan - aralashtirmoq) so'zi: 1. Biror narsani aralashtirish qurilmasi; 2. Domna pechlarida eritilgan cho'yanni harorati va ximiyaviy tarkibini mo'tadillashtirish maqsadida saqlash uchun ishlatiladigan idish. [2]. Mazkur atama qurilish texnikasi nomini ham anglatadi va bugungi kunda shu ma'noda tez-tez ishlatiladi: "UrbanAvto.group Sizga keng turdagi qurilish va tashish ishlarida foydalaniladigan maxsus texnikalar (samosval, freza, g'ildirakli va zanjirli ekskavatorlar, yuk yuklagichlar, buldozer, vibrokatok, avtogreyder, 90 tonnagacha bo'lgan yuklarni tashuvchi maxsus treylerlar, inert va temir mahsulotlarni tashuvchi avtotexnikalar, avtobetononasos, 10 va 16 m3 hajmli qattiq va suyuq beton qorishmalarni tashuvchi HOWO rusumli mikserlar) xizmatini muddatli to'lov asosida to'lash shartlari bilan taklif etadi" [3].

Har ikkala misolda mikser mexanik aralashtirish, bir xil massa hosil qilish va turli tarkibdagi suyuq va quyma moddalarni vaqtincha ushlab turish uchun mo'ljallangan qurilma ma'nolarini anglatsada, ular boshqa-boshqa texnika vositalarini atash uchun ishlatilmoqda. Ayrim hollarda ushbu atamalarning farqini ko'rsatish uchun aniqlovchi bilan ishlatilishini ham kuzatishimiz mumkin: "...Beton-mikser (Carmix) sotiladi" [4]. Ko'rinadiki,

beton-mikser atamasini tavsiflash uchun yana bir o'zlashma "carmix" so'zini ishlatishga zarurat tug'ilgan.

Rus va o'zbek tillarida o'zlashmalarni o'rganan tadqiqotchi A.E.Xudayqulovning fikricha har qanday o'zlashma so'z oluvchi tilga semantik jihatdan moslashadi [5].

O'zlashma atamalarining semantikasini farqlashda ularning etimologiyasi va dinamikasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Masalan, mikser so'zining birinchi ma'nosi boshqa so'zlar kabi tasodifan tug'ilgan". 1908 yilda amerikalik muhandis Gerbert Jonston non xamirini qo'lda qoriyatgan novvoyi ko'rdi. Novvoyning ishi naqadar og'ir va mashaqqatli ekanligi unda chuqur taassurot qoldirdi va shu kundan boshlab u novvoylarning ishini osonlashtiradigan qurilma yaratish g'oyasiga berilib ketdi. Jonston har bir xaridor uchun mavjud bo'lgan qulay va ishonchli mikserni yaratmoqchi bo'ldi va hatto unga berilgan mos nom - Kitchen Aid mikserlari, ya'ni "oshxona yordamchisi" degan ma'noni anglatadi. Albatta, birinchi mikser mukammal emas edi, lekin 11 yillik mashaqqatli mehnatdan so'ng Jonstonning mikseri bir vaqtning o'zida 75 kg xamirni aralashtirishga qodir bo'ldi. Bu kabi mikserlar Amerika dengiz floti kemalarining galereyalariga o'rnatilgan. Bundan tashqari, oddiy oshxonaga joylashtirilishi mumkin bo'lgan mikserning kichik modeli yaratildi. 1919 yilda sayyoralarini aralashtirish texnologiyasi uchun patent olindi. 1936 yilda Kitchen Aid mikserini taniqli dizayner va muhandis Egmont Arens ko'rdi va u o'zining oxirgi ko'rinishini berdi. Shu ko'rinishdagi jihoz nomi, keyinchalik boshqa shunga o'xshash jihozlarni ham ishlatishda qo'llanila boshladi. Hozirgi o'zbektilida mikser so'zi bilan yasalgan qator birikmalar ham uchraydi: stendli mikser, mikser-ko'pirtirgich, qo'l mikseri va boshqalar.

Ilmiy-texnikaviy matnlar tarjimasi sohasida ham tematik guruhlashning ahamiyati juda katta bo'lib, so'zni to'g'ri tushunish, matnni talqin qilish va uning samaradorligini oshirishda ham yordam beradi. Texnika nomlarini o'rganar ekanmiz ularni mavzuviy guruhlab o'rganish ularning funksiyalari va ishlatish o'rinlarini muayyan tilgan tarjima qilish jarayonida turli xil tarjima usullari va metodlarini bitta asosiy omil atrofida birlashtirish imkonini beradi.

Maishiy texnikaga oid o'zlashma leksemalarini tadqiq qilar ekanmiz, ularning turlari va ishlatilish funksiyasiga ko'ra quyidagi asosiy guruhlariga ajratishni lozim topdik.

Birinchi tematik guruhga oshxona asbob va uskunalarini kiritdik. Oshxona jihozlari, ehtimol, ovqat tayyorlash, pishirish va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashni osonlashtirish uchun mo'ljallangan keng turdagi asboblarni o'z ichiga olgan eng xilma-xil toifadir. Umumiy tematik kichik guruhlariga quyidagilar kiradi:

Pishirish asboblari: Mikroto'liqlik pech, plitalar, induksiya pechka, gaz plitasi, elektr plita, elektr grill, konveksiya pechi va hokazolar.

Ushbu leksik birliklarning ayrimlari birikmalar bo'lib, ma'nolari farqlanadi. Masalan, Konveksiya pechi bu so'z o'zbek tiliga lotincha "convectio" so'zidan o'zlashgan bo'lib, issiqlikning havo yoki suyuqlik orqali tarqalish jarayonini ifodalaydi. Pech so'zi esa rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi.

Elektr grill bu so'z o'zbek tiliga fransuz tilidan o'zlashgan bo'lib, dastlab bu so'z XVI asr o'rtalarida eski fransuz tilida "graille" va keyinchalik "grill" holida maishiy texnika sohasidagi leksema tarzida qo'llanila boshlagan [6], toster pechi bu maishiy texnika nomi esa ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, asli "toaster" so'zidan kelib chiqqan va shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Keyingi oshxona jihozlari turkumini ichiga kiruvchi asboblarga ovqat tayyorlash uchun ishlatiladigan asboblari: oziq-ovqat protsessori, blender va shu kabilari kiradi.

b) Audio jihozlari. Ushbu guruhga kiruvchi o'zlashma so'zlarni ham birma-bir tahlil qilib o'tamiz. 1878-yilda microphone "mikrofon" va record player "grammofon, magnitafon" so'zining paydo bo'lishi bilan "audio jihozlari" tematik guruhi rivojlana boshladi. Bu so'zlarning ikkalasi ham rus tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Bu guruhga quyidagi o'zlashma leksemalarni kiradi: kassetali magnitafon, CD pleyer (bu so'z ham o'zbek tiliga yangi kirib kelgan ingliz tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi), pleyer, karaoke pleyer, stereo tizimi, diktafon so'zi rus tiliga lotin tilidan kirib kelgan bo'lib (lotincha: dicto - "takrorlayman", grekcha: phone - "ovoz") qamroviga ega

bo'lib, og'zaki nutqni magnit lentalariga yozish va qayta ijro etish uchun mo'ljallangan apparatni bildiradi. "Diktofon"ga oid har qanday narsalar "diktofoniya" deb ataladi [7].

c) Isitish va sovutish jihozlari. Ushbu guruhdagi jihozlarni isitish, sovutish va havo sifati toifalariga guruhlash mumkin:

- Isitish moslamalariga quyidagi o'zlashma leksemani kiritamiz moy bilan to'ldirilgan radiator. Bu so'z o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi-da, asli rus tiliga ham bu leksema lotin tilidan kirib kelgan. So'zning lotincha ildizi "radio" (nurlanman, nur tarqataman) bo'lib, rus tilida "radiator" shaklida o'zlashtirilgan [8].

- Havoni sovutish moslamalariga esa konditsionerlar: markaziy konditsioner, deraza konditsioneri, portativ konditsioner va boshqalar. Bu maishiy texnika nomi lotincha so'z hisoblanadi nemi tili orqali rus tiliga o'tgan ma'nosi esa havo haroratini va namligini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma. O'zbek tiliga konditsioner so'zi rus tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi.

Ventilyator so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida berilishiga ko'ra lotin tilidan o'zlashgan leksema hisoblanib, bu so'zga quyidagicha izoh berilgan (lot. ventilator - yelpig'ich; sovutuvchi, shamollatuvchi) yopiq binodagi havoni yangilaydigan, havoni tozalab turadigan, mashina qismlarini sovutadigan shamolparrakli mexanizm [1]. Elektr ventilyator va quti ventilyator kabi turlarini ham ushbu tematik guruhga kiritishimiz mumkin. Ushbu maishiy texnika nomini o'zbek tiliga tarjima qilingan "Musaffo osmon" qissasida ham uchratishimiz mumkin. "Bu huvillagan xonada faqat bir stol bilan to'rtta stul, yana burchakda Elzaning g'aribgina yuki turardi. Shiftga o'rnatilgan kattakon ventilyator erinibgina aylanardi"[9].

Havo sifati asboblari: ionizator, portativ namlagich kabi asboblarni o'z ichiga oladi.

d) Shaxsiy parvarishlash asboblari. Bugungi kunda, eng katta maishiy texnika asboblari bo'lgan talab ham aynan shu guruhga kiruvchi dazmol, fen, piling cho'tkasi va boshqa shu kabi asboblarni o'z ichiga oladi. Ularning ayrimlari allaqachon o'zbek tiliga o'zlashib ulgurgan. Masalan, Dazmol (forscha - darz, teshik-tirgich, chokni tekislovchi) kiyim-kechak, gazlama va sh.k.ni qizdirib tekislash, silliqlash, g'ijimni yozish uchun mo'ljallangan asbob [2].

Fen so'zi lotin tilidagi "vannus" yelpichin, shamol so'zidan olingan bo'lsa-da o'zbek tilidan ingliz tilidagi "fan" so'zi orqali kirib kelgan. Bu leksema XIV asrda havoni agitatsiya qiluvchi (harakatga keltiruvchi) asbob ma'nosida qo'llanila boshlangan [10].

Keyingi shaxsiy parvarishlash asboblari kiruvchi asboblari terini parvarish qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalardir. Bu turga terini parvarish qilish uchun asboblari: piling cho'tkasi rus tili orqali o'zlashgan so'z rus tiliga esa ingliz tili orqali kirib kelgan peeling < to peel - teri ustidagi qatlamlarni qirish yoki olib tashlash jarayoni. Kosmetologiyada: yuz terisidagi chuqur ajinlarni yo'qotish uchun yuqori qatlamlarni olib tashlash [7]. Ushbu piling turlari haqida ilmiy maqola ham chop etilgan bo'lib, unda piling turlari va foydalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan, jumladan, o'rta kimyoviy piling 20% dan 50% gacha konsentratsiyada trixlorosirka kislotasi (TCA) yordamida amalga oshiriladi. Ushbu piling terini yoshartirish, intensivlikni kamaytirish yoki pigmentatsiyadan xalos bo'lish (yoshga bog'liq, yallig'lanishdan keyin, quyosh nurlanishi), chandiqlar va izlarni silliqlash, mayda ajinlardan xalos bo'lish uchun ishlatiladi [11].

Xulosa va takliflar. Maishiy texnika nomlarining tematik guruhlanishi nafaqat ushbu qurilmalarni funktsionalligiga qarab tartibga solishga yordam beradi, balki ularning hayotimizdagi rolini tushunishimizga yordam beradi. Bu asboblari asosan rivojlangan mamalakatlarda texnika taraqqiy etgan millat vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgani bois bu texnika asboblari ishlatish va foydalanish yo'riqnomalarini o'z tilimizga tarjima qilib, o'quvchilarga sodda va aniq tilda yetkazib berish uchun tarjimonlar bu sohani chuqur o'rganishi talab etiladi. Bu maishiy texnika nomlarini qaysi tildan o'zlashgan ekanligini va etimologiyasini bilish va o'sha tilni mukammal o'rganish bu texnikalarning yo'riqnomalarini to'g'ri tarjima qilishga va tarjima jarayonidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: “Excellent Polygraphy”, 2020. – 117b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL). 1-5 jildlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. <https://kun.uz/kr/02457237?q=%2Fuz%2F02457237>
4. <https://uzbekleasing.uz/uz/about/equipment/special/5462/>
5. Худайкулов, А.Э. (2011). Семантическая адаптация некоторых английских заимствованных слов в русских письменных памятниках XVII-XIX веков. Вестник Челябинского государственного университета, (28), 134-137.
6. <https://etymonline.com>
7. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2006. – 964 с.
8. <https://uz.m.wiktionary.org>
9. Krishan Chandar “Musaffo Osmon” qissa, “Jahon adabiyoti” jurnali. 2008.
10. Onions C.T. THE OXFORD DICTIONARY OF ENGLISH ETYMOLOGY (1966), Oxford University Press, 2021.
11. Islombekova, Sh.D. (2023). Kimyoviy pilinglar. Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan. 8-11.